

## MAKON VA QAHRAMON GEKLBERRI FINN MISOLIDA

*Kurbanova Muhabbat Mamadjanovna*

*Toshkent davlat transport universiteti, dotsent*

**Abstract:** The thesis describes the character of Huckleberry Finn, the main character of the novel "The Adventures of Huckleberry Finn" by Mark Twain, in real events. Huckleberry focuses on the main purpose of all the place, the image of the space, the actions of the characters and the events in the novel. It has been noted that the character of Huck Finn is essentially a growing character due to the possibility of the novel genre.

**Key words:** island, image, hurricane, night, image of space, mature society, freedom, river.

**Annotatsiya:** Tezisdan Mark Tvenning "Geklberri Finn sarguzashtlari" romani bosh qahramoni Geklberri Finning obrazi real voqealar ichida tasvirlanadi. Geklberri romandagi barcha joy, makon tasviri, personajlar harakati va voqealarning o'zak maqsadini o'ziga qaratadi. Gek Finning obrazi mohiyatiga ko'ra o'sib boruvchi xarakter ekanligini roman janri imkoniyatidan kelib chiqqanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** orol, obraz, dovul, tun, makon tasviri, yetuk jamiyat, ozodlik, daryo.

**Аннотация:** В статье описывается характер Гекльберри Финна, главного героя романа Марка Твена «Приключения Гекльберри Финна», в реальных событиях. Гекльберри акцентирует внимание на главном назначении всего места, образе пространства, действиях персонажей и событиях романа. Было отмечено, что персонаж Гека Финна по сути является развивающимся персонажем благодаря возможностям жанра романа.

**Ключевые слова:** остров, образ, ураган, ночь, космическое изображение, зрелое общество, свобода, река.

Rus olimi V.E.Xalizev ta'kidlaganidek "Adabiy asarlarda vaqt va makon ikki xil aks ettiriladi: birinchidan, motiv va leytmotiv (ko'proq lirikada), ba'zan ramziy xarakterda bo'ladi va olamning u yoki bu tasvirini anglatadi. Ikkinchidan esa ular syujet asoslarini tashkil etadi"<sup>1</sup>. Demak, vaqt va makon syujet asosini tashkil etsa, unda obraz asosini ham shakllantiradi, deyishga asos bor. Sababi Mark Tvenning yaratgan Geklberri obrazi ham real voqealar ichida tasvirlanadi. Bunday tasvirlardagi qahramon o'zining ba'zi xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, Geklberri romandagi barcha joy, makon tasviri, personajlar harakati va voqealarning o'zak maqsadini o'ziga qaratadi. Natijada ham bir personaj Gek obrazi bilan munosabatga kirishadi. Masalan, romanda majaqlangan kemadan qochib, ularga yordam yuborishga erishganlaridan keyin daryo o'rtasidagi orolda qolishlari tasvirlanadi [79-83]. Orol o'rtasida chakalakzor bo'lib, atrof tinch

<sup>1</sup> Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. – 188 с. [www.gumer.ru/books/xalizev](http://www.gumer.ru/books/xalizev)

daraxtlar orasidagi odam qirg'oqdan ko'rinmas, atrof sokin edi. Orol tabiatining ana shunday tasviri qahramonlarning o'zlarini ozod odamlardek his etishlari, bemalol o'ynab kulishlari uchun sharoit hisoblanardi. Natijada Gekning o'qishni bilishi, qo'liga ilingan kitobni o'qishi va o'qishni bilmaydigan Jimga ko'p narsalarni so'zlab berishi ushbu qahramonlarning ma'naviy olamining ochilishiga xizmat qiladi. Xususan, ular Sulaymon, fransuz qiroli Lyudovika XVI, uning yetim qolgan o'g'li va uning Amerikaga kelishi, negrlarning bolani doimo hurmat qilishi, ota hech qachon bolasini tashlab qo'ymasligi haqida kattalardek fikr yuritishadi. Bu esa ularning mustaqil fikri shakllangani, tafakkuri xalq qadriyatlarini umuminsoniy g'oyalar – insonparvarlik, adolatparvarlik, hayotsevarlik kabilar bilan uyg'unligini ko'rsatadi. Demak, ovloqdagi orol (makon) tasviri qahramonlarning ma'naviy olamini ochishga yordam bergan.

Orolchada bolalar uch kun mashaqqatli va tahlikali kechgan dovulli tundan keyin dam olishadi. Uxlashadi, qotillar to' dasidan olib qochishgan qayiq va undagi narsalarni ko'zdan kechirishadi, kitob o'qishadi, qirollar, graflar hamda ularning turmush tarzi, asilzodalarning o'zaro iltifotli munosabati haqida fikrlashadi. Bu esa Gek va Jim orzu qilgan, ular intilgan mutloq ozodlik va shaxs erki to'liq ta'minlangan jamiyat (makon) sifatida syujet rivojidadagi voqealarga qarama-qarshi qo'yilib, Gek sarguzashtlaridan asosiy maqsad ana shunday yetuk jamiyat shakllantirish ekanligini ham anglatadi. Bunday joyni ular Qohira deb atashadi. Ular Qohiraga uch kunda yetib olishmoqchi bo'lishgani, Ogayyo daryosi Mississipiga quyiladigan joy, Ilinoy shtati chegarasiga yetib olishsa, unda u yog'i ozod shtatlar va hech narsadan qo'rqmaslikni o'ylashgan edi. Shu yerda Gekning asosiy maqsadi shaxs erki, Jimniki esa ozodlik ekanligini ochiq bayon etiladi. Demak, yozuvchi orolchani voqealar rivojlanishi va bolaning kunduzi yashirinishi kerakli haqidagi voqealar mantig'idan kelib chiqib sokin, bexavotir makon sifatida berishdan bir necha maqsadni ko'zlagan. Birinchisi, bolalarning kunduzi qanday vaqt o'tkazishi, qahramon sifatida hali ochilmagan qirralarini ochib berish bo'lsa, boshqa tomondan, shu yerda yozuvchi Gekning kitob mutolaasi bilan band bo'lishi va xayolidagi ideal jamiyat haqida bolalarcha mulohazalari orqali o'zining ham badiiy niyatini oshkor qilgan.

Avvalo, aytish kerakki, daryo ramziy ma'noda bolaning hayot yo'lini anglatadi. Ikki tomon esa kishilik jamiyati bo'lib, ularning birorta yerida bola qayiqni to'xtatib, qirg'oqqa chiqib olishiga imkon beradigan sayhonlik, bekat ko'rinmaydi. Ikkinchidan, bola qayta va qayta tilga olayotgan Qohira xayoliy makoni, odil va ozod jamiyat haqidagi orzular ularni tinimsiz olg'a yurishga undaydi. Ogayyo va Missisipi daryolari tutashgan joyni Qohira deb o'ylagan bolalar, shaxs ozod bo'ladigan makonni izlashadi. Bilishmaydiki, bunday makon aslida faqat xayolda mavjud, real hayotda esa odam va odam o'rtasidagi ijtimoiy munosabat doimo turli ziddiyatlarga olib kelgan. Lekin bu ziddiyat qonli to'qnashuvga, bir-birini yomon ko'radigan darajadagi salbiy tomonga o'zgarish kerak. Odam individ sifatida mavjud ekan, o'ziga xos xarakter qirralarini namoyon etishi, turli vaziyatlar borasida o'z fikrini aytishi tabiiy jarayon sanaladi. Shuning uchun Mark Tven romanidagi bosh qahramon ham o'z orzusidagi Qohiraga yetib olish uchun odamlardan ma'lumot olmoqchi bo'ladi.

Lekin u yosh bo'lgani va qidiruvda ekanligini hech qachon unutmaydi. Shuning uchun aldashga qaror qiladi. Uning boladek samimiy boqishi va yosh ekanligini inobatga olgan kattalar unga ishonishadi.

Romandagi turli darajadagi makonlar qahramonni yaxlit mavjudlik sifatida ko'rsatadi. Bunda qahramon va uning atrofidagi boshqa obrazlar o'z vazifasidan tashqari ramziy vazifa ham bajarishi mumkin. Natijada mazkurlar makondagi o'z rangi, shakli, qiyofasi, holatini obrazga moslashi mumkin. Daryo makon sifatida umumiy syujetni bog'lovchi yagona mavjudlik sifatida romanning boshidan oxirigacha kompozitsiya, syujet, til, obraz kabi badiiylik unsurlarini birlashtiradi.

Umuman olganda, Gek qahramon sifatida turli badiiy makonlardan o'tar ekan, qat'iyatli, kuchli bo'la boshlaydi. Hayot qadri, yaxshi odamlar ozchilik ekanligini anglay boshlaydi. O'z oldiga katta marralar qo'ya boshlaydi. Oxir oqibat u yana o'zi asrab olingan uyiga qaytadi.

#### REFERENCES

1. Mark Twain at Work. by DeVoto - Cambridge, 1942 [www.books.com](http://www.books.com).
2. The Adventures of Huckleberry Finn (Tom Sawyer's Comrade) by Mark Twain. A Glass bookclassic. <http://boorzip.ru>
3. The Adventures of Tom Sawyer By Mark Twain. <http://planet.ebook.com>.
4. The capture and release of Captain John Smith, including his rescule from death by Pocahontas, in his own words from the general history of Virginia as publised at London 1624. [Ann Arbor]: Reprinted for the Clements Library Associates [by University of Michigan Print. ogg], 1960. [www.books.library.org](http://www.books.library.org)
5. Курбанова, М. М. (2021, December). ГЕКЛЪБЕРРИ ОБРАЗИ ВА БАДИИЙ МАКОН МАСАЛАСИ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).
6. Курбанова, М. М. (2022). МАРК ТВЕИ-НОВАТОР ЁЗУВЧИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 389-392.